



## DIZARTRIYADA OLIB BORILAYOTGAN KORREKSION - PEDAGOGIK ISHLAR TIZIMI

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi  
Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi  
talabasi Mamarasulova Sojida Dilmurodjon qizi*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233722>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dizartriya bilan bog'liq bo'lgan nutq buzilishlarini tuzatish maqsadida olib borilayotgan korreksion – pedagogik ishlar tahlil qilinadi. Maqolada dizartriya tushunchasi haqida ma'lumotlar, dizartriyaning turlari, uni bartaraf etish metodikasi hamda individual va guruh shaklidagi mashg'ulotlarning samaradorligi muhokama qilinadi. Shuningdek, pedagogik hamkorlikning ahamiyati va nutq terapiyasida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Dizartriya, neyrolingvistika, anartriya, bulbar, psedobulbar.

Dizartriya – artikulyatsiya apparati mushaklarining innervatsiya buzilishlari natijasida yuzaga keladigan nutq nuqsoni bo'lib, uning korreksiyasi logopedik yondashuvni talab etadi. Dizartriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis - bo'lak, arthon – biriktirish degan ma'noni bildiradi.

Dizartriya – bu markaziy harakterdagi organik nutq buzilishi hisoblanadi.

Dizartriya nutq a'zolarining (yumshoq tanglay, til, lab) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligida o'zgarishlar kuzatiladi. Ko'pchilik mutaxassislar dizartriyaning tasniflashda jarohatlanish o'chog'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyaning quyidagi turlarga ajratdilar: bulbar, psedobulbar, qobiqli dizartriya, qobiqli osti va miyachali dizartriya.

Dizartrik bolada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

### **Dizartriya bilan ishlashda korreksion – pedagogik ishlar tizimi**

**1.Diagnostik bosqich.** Bu bosqichda bola nutqining umumiy holati o'rganiladi, dizartriyaning darjasi va shakli aniqlanadi. Quyidagi tadqiqotlar o'tkaziladi:

- Nutqiy apparatning motorik imkoniyatlarini baholash
- Fonematik eshitish va talaffuzni tekshirish
- Nutqning Grammatik tuzilishini aniqlash
- Qo'shimcha tekshiruvlar ( nevropatolog, defektolog, psixolog konsultatsiyasi)

**2.Logopedik ishlar.**Dizartriyaning korreksiya qilishda logopedning roli juda katta.

Logopedik ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- Artikulyatsion gimnastika** – lab va til mushaklarini harakatchanligini oshirish uchun mashqlar;
- Nafas olish mashqlari** – diafragmal nafas olishni rivojlantirish;
- Fonematik eshitishni rivojlantirish** – tovushlarni farqlash va eshitish orqali to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish;
- Tovush qo'yish va avtomatlashtirish** – noto'g'ri talaffuz qilinayotgan tovushlarni to'g'rilash;
- Nutq ritmini va tempi bilan ishlash** – qo'shiq aytish, she'r o'qish, musiqa orqali mashqlar bajarish.



### 3. Psixologik – pedagogik yondashuv.

- Bola emotsional holatini barqarorlashtirish uchun psixologik qo'llab – quvvatlash
- Ijtimoiy moslashuvni yaxshilash uchun maxsus o'yinlar va mashg'ulotlar
- Ota – onalar bilan ishlash: uyda bajariladigan mashqlar va tavsiyalar

### 4. Tibbiy va fizioterapevtik yordam

- Massaj va reflector terapiya
- Sensor terapiya va suzish
- Fizioterapevtik mashg'ulotlar va gimnastika

Dizartriya bilan ishlash uzoq va kompleks yondashuvni talab etadi. Natijaga erishish uchun logoped, psixolog, defektolog, nevropatolog va ota- onalar hamkorlikda ishlashlari muhim.

Dizartriya to'g'risida bir nechta normative – huquqiy hujjatlar mavjud bularga quyidagini misol qilish mumkin:

“Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi qonun – Nutq buzilishlariga ega bolalar uchun maxsus pedagogik shart sharoitlarni yaratish masalasini qamrab oladi.

**Xulosa.** Dizartriya bila bog'liq korreksion – pedagogik ishlar tizimi maxsus ta'lim va tibbiy – psixologik yondashuv asosida tashkil etiladi. Ushbu tizm logoped, defektolog va psixologlar hamkorligida olib borilib, bolaning nutq funksiyalarini yaxshilash, ijtimoiy moslashuvni oshirish hamda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekistonda bunday ishlarga oid faoliyat “Ta'lim to'g'risida”gi va “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi qonunlar asosida amalga oshiriladi. Samarali korreksion ishlar individual yondashuv, maxsus mashqlar va terapevtik metodlarni o'z ichiga olishi lozim. Bu jarayonning muvaffaqiyati erta diagnostika va tizimli rehabilitatsiyaga bog'liq.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Y.Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T. : O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, 2007.
2. L.R.Mo'minova. Nutq kamchiligi bor bolalarning psixologik – pedagogik diagnostikasi. T., 2012
3. L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova. logopediya. – T.,1993.